



REGULATION OF THE SUSTAINABILITY CLUB OF THE “SILK ROAD” INTERNATIONAL UNIVERSITY OF TOURISM AND CULTURAL HERITAGE

1. GENERAL PROVISIONS

1.1. This Regulation serves as the principal normative document governing the legal status, areas of activity, management structure, membership procedures, and internal operations of the **Sustainability Club** established under the “Silk Road” International University of Tourism and Cultural Heritage.

1.2. The Club is a socio-academic platform functioning within the organizational structure of the University, while operating on the basis of student initiatives. It is aimed at promoting and implementing the principles of sustainable development in practice.

1.3. The Club carries out its activities based on the following legal frameworks and principles:

- The Constitution and current legislation of the Republic of Uzbekistan
- Internal regulations and policies of the University
- The Sustainable Development Goals (SDGs) developed by the United Nations
- International standards on environmental protection and sustainable development (ESG, Green Campus approaches)
- This Regulation

1.4. The Club operates on a non-profit basis and does not aim to generate economic profit. Instead, it focuses on social, environmental, and educational activities.

1.5. The activities of the Club are organized based on the following core principles:

- **Voluntariness** – freedom of membership and participation
- **Transparency** – all decisions are made openly
- **Inclusiveness** – equal opportunities for all students and staff
- **Sustainability** – focus on long-term environmental and social impact
- **Cooperation** – mutually beneficial partnerships at national and international levels

2. PURPOSE AND OBJECTIVES OF THE CLUB

2.1. Main Purpose of the Club:

The primary purpose of the Club is to widely promote and implement the principles of sustainable development both within the University and beyond, to foster environmental awareness and culture, and to prepare students as responsible leaders capable of addressing global challenges.

2.2. Main Objectives of the Club:

2.2.1. To develop environmental awareness and knowledge among students and staff, and to promote a responsible attitude toward the environment.

2.2.2. To introduce and develop the “Green Campus” concept at the University, including promoting systems for energy efficiency, rational use of water resources, and waste reduction.

2.2.3. To promote the principles of sustainable tourism and support scientific and practical initiatives in this field.

2.2.4. To engage students in projects aimed at solving real-life environmental and social challenges.

2.2.5. To study and implement best practices through the development of cooperation with national and international organizations.

2.2.6. To encourage and support research activities related to sustainable development.

2.2.7. To operate in alignment with the Sustainable Development Goals of the United Nations, particularly SDG 13 (Climate Action), SDG 15 (Life on Land), and SDG 17 (Partnerships for the Goals).

3. MAIN AREAS OF ACTIVITY OF THE CLUB

3.1. Environmental Initiatives:

- Organizing regular campaigns for tree planting, expanding green areas, and improving landscaping within the University territory
- Initiating systems for waste sorting, recycling, and reduction
- Promoting the reduction of plastic usage and encouraging environmentally friendly alternatives
- Conducting campaigns on efficient use of energy and water resources

3.2. Educational and Awareness Activities:

- Organizing seminars, trainings, roundtable discussions, and lectures
- Providing special courses and open classes on sustainability for students
- Conducting workshops with the involvement of local and international experts
- Implementing information campaigns and awareness-raising activities

3.3. Scientific and Innovative Activities:

- Supporting student research projects and startups
- Participating in conferences and forums

- Conducting scientific research in the field of sustainable development
- Developing innovative environmental solutions

3.4. Social and Volunteering Activities:

- Organizing environmental campaigns in cooperation with local communities
- Participating in social projects
- Promoting and developing student volunteer movements

3.5. International Cooperation:

- Participating in international grants and projects
- Implementing joint projects with foreign universities
- Engaging in programs such as Erasmus+ and other international initiatives
- Integrating into global sustainability networks

4. CLUB MEMBERSHIP

4.1. Membership in the Club is open and voluntary, ensuring equal opportunities for every student.

4.2. Membership includes the following categories:

- Active members
- Volunteer members
- Honorary members

4.3. Admission to membership is carried out based on an application and approved by the Club management.

4.4. Rights of Members:

- To actively participate in Club activities
- To propose and manage projects
- To participate in elections
- To use Club resources

4.5. Obligations of Members:

- To comply with the requirements of this Regulation
- To participate regularly in Club activities
- To respect environmental and social values
- To uphold and protect the reputation of the Club

5. CLUB GOVERNANCE AND ORGANIZATIONAL STRUCTURE

5.1. The governance of the Club is organized based on democratic, transparent, and efficient management principles and consists of the following main bodies:

- Club Chairperson
- Deputy Chairperson
- Secretary
- Coordinators by areas (ecology, education, projects, media, etc.)
- Club Council (an advisory body composed of active members)

5.2. The Chairperson is the highest executive authority of the Club and has the following powers:

- To provide overall strategic leadership of the Club's activities
- To develop and approve annual and long-term development plans
- To maintain official relations with the University administration, partner organizations, and external stakeholders
- To represent the Club officially
- To resolve internal disputes and ensure operational efficiency

5.3. Deputy Chairperson:

- Assists the Chairperson and performs their duties in their absence
- Coordinates projects and organizational activities
- Monitors activities across different areas

5.4. Secretary:

- Maintains Club documentation and records
- Prepares meeting minutes
- Ensures information exchange and internal communication

5.5. Coordinators:

- Organize activities within designated areas (Green Campus, education, volunteering, media, etc.)
- Develop and implement projects
- Prepare reports on outcomes

5.6. Club Council:

- Acts as an advisory body composed of active members
- Provides recommendations on strategic issues
- Participates in discussions of key decisions

5.7. The governing bodies of the Club are formed through elections:

- Elections are conducted based on openness, transparency, and equality
- Candidates are nominated from among the members
- Election results are approved through official minutes

5.8. The term of office for management positions is typically one year, with the possibility of re-election.

5.9. All decisions within the Club are made collectively, based on open discussion.

6. FINANCIAL ACTIVITIES

6.1. The Club operates as a non-profit organization, and its financial activities are directed solely toward achieving the objectives defined in this Regulation.

6.2. The Club's activities may be financed through the following sources:

- Funds allocated by the University
- National and international grants
- Sponsorship and donor contributions
- International programs and projects
- Voluntary donations (in accordance with legislation)

6.3. Club funds are utilized in the following areas:

- Implementation of environmental and social projects
- Organization of seminars, trainings, and events
- Development of informational and promotional materials
- Technical and organizational expenses

6.4. Financial activities are carried out based on the following principles:

- Transparency
- Accountability
- Targeted use of funds
- Compliance with legislation

6.5. Regular financial reports on all operations carried out by the Club are prepared and submitted to the University when necessary.

6.6. The use of Club funds for personal benefit is strictly prohibited.

7. COOPERATION

7.1. In order to expand its activities and enhance effectiveness, the Club cooperates with national and international organizations.

7.2. Cooperation is carried out with the following entities:

- International organizations (including organizations within the United Nations system)
- Higher education institutions
- Research centers
- Non-governmental non-profit organizations
- Government bodies and local authorities
- Private sector and business entities

7.3. Cooperation is implemented in the following areas:

- Joint projects and programs
- Academic and experience exchange
- Scientific research and innovation
- Seminars, conferences, and forums
- Environmental and social initiatives

7.4. In developing cooperation, the Club adheres to the principles of mutual benefit, openness, and sustainability.

7.5. Where necessary, cooperation is established based on memoranda of understanding (MoU), agreements, or other official documents.

8. MONITORING AND EVALUATION

8.1. The effectiveness of the Club's activities is regularly analyzed through a monitoring and evaluation system.

8.2. Monitoring is carried out in the following areas:

- Number and quality of projects
- Number of students and participants

- Level of environmental and social impact
- Results of cooperation activities

8.3. Modern indicators and international standards are used in the evaluation process.

8.4. The Club prepares the following types of reports:

- Monthly activity reports
- Quarterly analytical reports
- Annual consolidated report

8.5. Reports are presented to the University administration and stakeholders based on the principle of transparency.

8.6. Based on monitoring results, measures are developed to improve the Club's activities.

9. INFORMATION POLICY AND COMMUNICATION

9.1. The Club's activities are communicated to the wider public based on the principles of openness and transparency.

9.2. The main objective of the information policy is to provide prompt, reliable, and comprehensive information about the Club's activities.

9.3. The Club uses the following communication tools:

- The University's official website
- Social media platforms (Telegram, Instagram, Facebook, etc.)
- Mass media
- Information bulletins and press releases

9.4. All information published by the Club must meet the requirements of reliability, accuracy, and formality.

9.5. Media activities serve to build the Club's image, develop cooperation, and attract students.

10. FINAL PROVISIONS

10.1. This Regulation shall enter into force from the date of approval by the University administration and shall be binding for execution.

10.2. Compliance with the provisions of this Regulation is mandatory for all Club members.

10.3. Amendments and additions to the Regulation are made in the following procedure:

- Proposal by the Club Council
- Discussion
- Approval by the University administration

10.4. The Club may be dissolved in the following cases:

- By decision of the University
- By decision of the general meeting of Club members
- In other cases предусмотренных by legislation

10.5. In the event of the dissolution of the Club, all its documents and resources shall be transferred to the University.



“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI BARQAROR RIVOJLANISH KLUBI NIZOMI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzurida tashkil etilgan **Barqaror rivojlanish klubi (Sustainability Club)**ning huquqiy maqomi, faoliyat yo‘nalishlari, boshqaruv tizimi, a‘zolik tartibi hamda ichki faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy hujjat hisoblanadi.

1.2. Klub Universitetning tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi, lekin talabalarning tashabbuslari asosida faoliyat yurituvchi ijtimoiy-akademik platforma bo‘lib, u barqaror rivojlanish g‘oyalarini ilgari surish va amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

1.3. Klub o‘z faoliyatini quyidagi normativ-huquqiy asoslar va tamoyillar asosida amalga oshiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchiligi
- Universitetning ichki tartib-qoidalar va nizomlari
- United Nations tomonidan ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)
- Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro standartlar (ESG, Green Campus yondashuvlari)
- Mazkur Nizom

1.4. Klub faoliyati notijorat xarakterga ega bo‘lib, u iqtisodiy foyda olishni maqsad qilmaydi, balki ijtimoiy, ekologik va ma‘rifiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi.

1.5. Klub faoliyati quyidagi asosiy tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- **Ixtiyoriylik** – a‘zolik va ishtirok erkinligi
- **Shaffoflik** – barcha qarorlar ochiq tarzda qabul qilinadi
- **Inklyuzivlik** – barcha talabalar va xodimlar uchun teng imkoniyatlar
- **Barqarorlik** – uzoq muddatli ekologik va ijtimoiy ta‘sirga yo‘naltirilganlik
- **Hamkorlik** – milliy va xalqaro darajada o‘zaro manfaatli aloqalar

2. KLUBNING MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Klubning asosiy maqsadi:

Universitet hududida va undan tashqarida barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etish, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, hamda talabalarni global muammolarni hal eta oladigan mas'uliyatli liderlar sifatida tayyorlashdan iborat.

2.2. Klubning asosiy vazifalari:

2.2.1. Talabalar va xodimlar orasida ekologik bilim va ongni shakllantirish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni rivojlantirish.

2.2.2. Universitetda "Green Campus" konsepsiyasini joriy etish va rivojlantirish, shu jumladan energiya samaradorligi, suvdan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish tizimlarini targ'ib qilish.

2.2.3. Barqaror turizm tamoyillarini ilgari surish va bu yo'nalishda ilmiy-amaliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

2.2.4. Talabalarni real hayotdagi ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish.

2.2.5. Xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali ilg'or tajribalarni o'rganish va joriy etish.

2.2.6. Barqaror rivojlanish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

2.2.7. United Nations Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan SDG 13 (Iqlim harakati), SDG 15 (Quruqlikdagi hayot) va SDG 17 (Hamkorlik) doirasida faoliyat yuritish.

3. KLUBNING ASOSIY FAOLIYAT YO'NALISHLARI

3.1. Ekologik tashabbuslar yo'nalishi:

- Universitet hududida daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish va landshaftni yaxshilash bo'yicha muntazam aksiyalar tashkil etish
- Chiqindilarni saralash, qayta ishlash va kamaytirish tizimlarini joriy etish bo'yicha tashabbuslar
- Plastikdan foydalanishni kamaytirish va ekologik alternativalarini targ'ib qilish
- Energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha kampaniyalar

3.2. Ta'limiy va ma'rifiy faoliyat:

- Seminar, trening, davra suhbat va ma'ruzalar tashkil etish
- Talabalar uchun sustainability bo'yicha maxsus kurslar va ochiq darslar
- Mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda workshoplar o'tkazish
- Axborot kampaniyalari va targ'ibot ishlari

3.3. Ilmiy va innovatsion faoliyat:

- Talabalar ilmiy loyihalari va startaplarini qo'llab-quvvatlash
- Konferensiya va forumlarda ishtirok etish
- Barqaror rivojlanish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish
- Innovatsion ekologik yechimlar ishlab chiqish

3.4. Ijtimoiy va volontyorlik faoliyati:

- Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda ekologik aksiyalar o'tkazish
- Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish
- Talabalar volontyorlik harakatini rivojlantirish

3.5. Xalqaro hamkorlik yo'nalishi:

- Xalqaro grantlar va loyihalarda ishtirok etish
- Xorijiy universitetlar bilan hamkorlik loyihalarini amalga oshirish
- Erasmus+ va boshqa dasturlar doirasida faoliyat yuritish
- Global sustainability tarmoqlariga integratsiya

4. KLUB A'ZOLIGI

4.1. Klub a'zoliq ochiq va ixtiyoriy bo'lib, har bir talabaga teng imkoniyat yaratiladi.

4.2. A'zolik quyidagi toifalarni o'z ichiga oladi:

- Faol a'zolar
- Ko'ngilli a'zolar
- Faxriy a'zolar

4.3. A'zolikka qabul qilish ariza asosida amalga oshiriladi va klub rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

4.4. A'zolarning huquqlari:

- Klub faoliyatida faol ishtirok etish
- Loyihalar taklif qilish va boshqarish
- Saylovlarda qatnashish
- Klub resurslaridan foydalanish

4.5. A'zolarning majburiyatlari:

- Nizom talablariga rioya qilish
- Klub faoliyatida muntazam ishtirok etish
- Ekologik va ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilish
- Klub obro'sini saqlash

5. KLUB BOSHQARUVI VA TASHKILY TUZILMASI

5.1. Klub boshqaruvi demokratik, shaffof va samarali boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etiladi hamda quyidagi asosiy organlardan iborat bo'ladi:

- Klub raisi
- Rais o'rinbosari
- Kotib
- Yo'nalishlar bo'yicha koordinatori (ekologiya, ta'lim, loyiha, media va boshqalar)
- Klub kengashi (faol a'zolaridan iborat maslahat organi)

5.2. **Klub raisi** klubning oliy ijro etuvchi shaxsi hisoblanadi va quyidagi vakolatlarga ega:

- Klub faoliyatini umumiy strategik boshqarish
- Yillik va istiqbolli rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash
- Universitet rahbariyati, hamkor tashkilotlar va tashqi manfaatdor tomonlar bilan rasmiy aloqalarni amalga oshirish
- Klub nomidan chiqish qilish va rasmiy vakillikni ta'minlash
- Ichki nizolarni hal etish va faoliyat samaradorligini ta'minlash

5.3. **Rais o'rinbosari:**

- Klub raisiga yordam beradi va uning yo'qligida vazifalarini bajaradi
- Loyihalar va tashkiliy ishlarni muvofiqlashtiradi
- Faoliyat yo'nalishlari kesimida nazorat olib boradi

5.4. **Kotib:**

- Klub hujjatlari va protokollarini yuritadi
- Yig'ilishlar bayonnomalarini rasmiylashtiradi
- Axborot almashinuvi va ichki kommunikatsiyani ta'minlaydi

5.5. **Koordinatorlar:**

- Belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha (Green Campus, ta‘lim, volontyorlik, media va boshqalar) faoliyatni tashkil etadi
- Loyihalarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi
- Natijalar bo‘yicha hisobot tayyorlaydi

5.6. **Klub kengashi:**

- Klubning maslahat organi bo‘lib, faol a‘zolaridan tashkil topadi
- Strategik masalalar yuzasidan tavsiyalar beradi
- Muhim qarorlar muhokamasida ishtirok etadi

5.7. Klub boshqaruv organlari saylov asosida shakllantiriladi:

- Saylovlar ochiq, shaffof va tenglik tamoyillari asosida o‘tkaziladi
- Nomzodlar a‘zolar orasidan ilgari suriladi
- Saylov natijalari bayonnoma asosida tasdiqlanadi

5.8. Boshqaruv lavozimlari uchun vakolat muddati odatda **1 yil**ni tashkil etadi va qayta saylanish huquqi saqlanadi.

5.9. Klub doirasidagi barcha qarorlar kollegial tarzda, ochiq muhokama asosida qabul qilinadi.

6. MOLIYAVIY FAOLIYAT

6.1. Klub notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritadi va uning moliyaviy faoliyati faqat nizomda belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

6.2. Klub faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin:

- Universitet tomonidan ajratiladigan mablag‘lar
- Milliy va xalqaro grantlar
- Homiylik va sponsorlik mablag‘lari
- Xalqaro dasturlar va loyihalar
- Ixtiyoriy xayriya mablag‘lari (qonunchilikka muvofiq)

6.3. Klub mablag‘lari quyidagi yo‘nalishlarda sarflanadi:

- Ekologik va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish
- Seminar, trening va tadbirlar tashkil etish
- Axborot materiallari va targ‘ibot vositalarini ishlab chiqish
- Texnik va tashkiliy xarajatlar

6.4. Moliyaviy faoliyat quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- Shaffoflik
- Hisobdorlik
- Maqsadli foydalanish
- Qonunchilikka muvofiqlik

6.5. Klub tomonidan amalga oshirilgan barcha moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha muntazam hisobotlar tayyorlanadi va zarur hollarda Universitetga taqdim etiladi.

6.6. Klub mablag‘laridan shaxsiy manfaatlar yo‘lida foydalanish qat’iyan taqiqlanadi.

7. HAMKORLIK

7.1. Klub o'z faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish maqsadida milliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

7.2. Hamkorlik quyidagi subyektlar bilan amalga oshiriladi:

- Xalqaro tashkilotlar (jumladan United Nations tizimi tashkilotlari)
- Oliy ta'lim muassasalari
- Ilmiy-tadqiqot markazlari
- Nodavlat notijorat tashkilotlar
- Davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar
- Xususiy sektor va biznes subyektlari

7.3. Hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Qo'shma loyihalar va dasturlar
- Akademik va tajriba almashinuvi
- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar
- Seminar, konferensiya va forumlar
- Ekologik va ijtimoiy tashabbuslar

7.4. Klub hamkorlikni rivojlantirishda o'zaro manfaatlilik, ochiqlik va barqarorlik tamoyillariga amal qiladi.

7.5. Zarur hollarda hamkorlik memorandumi (MoU), bitim yoki boshqa rasmiy hujjatlar asosida yo'lga qo'yiladi.

8. MONITORING VA BAHOLASH

8.1. Klub faoliyatining samaradorligi muntazam ravishda monitoring va baholash tizimi orqali tahlil qilinadi.

8.2. Monitoring quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Loyihalar soni va sifati
- Talabalar va ishtirokchilar soni
- Ekologik va ijtimoiy ta'sir darajasi
- Hamkorlik faoliyati natijalari

8.3. Baholash jarayonida zamonaviy indikatorlar va xalqaro mezonlardan foydalaniladi.

8.4. Klub tomonidan quyidagi turdagi hisobotlar tayyorlanadi:

- Oylik faoliyat hisobotlari
- Choraklik tahliliy hisobotlar
- Yillik umumlashtirilgan hisobot

8.5. Hisobotlar ochiqlik tamoyili asosida Universitet rahbariyatiga va manfaatdor tomonlarga taqdim etiladi.

8.6. Monitoring natijalari asosida klub faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

9. AXBOROT SIYOSATI VA KOMMUNIKATSIYA

9.1. Klub faoliyati ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida keng jamoatchilikka yetkaziladi.

9.2. Axborot siyosatining asosiy maqsadi — klub faoliyati haqida tezkor, ishonchli va to'liq ma'lumot berishdan iborat.

9.3. Klub quyidagi kommunikatsiya vositalaridan foydalanadi:

- Universitetning rasmiy veb-sayti
- Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook va boshqalar)
- Ommaviy axborot vositalari
- Axborot byulletenlari va press-relizlar

9.4. Klub tomonidan e'lon qilinadigan barcha axborotlar ishonchlilik, aniqlik va rasmiylik talablariga javob berishi shart.

9.5. Media faoliyati klubning imidjini shakllantirish, hamkorlikni rivojlantirish va talabalarni jalb qilishga xizmat qiladi.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur Nizom Universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va majburiy ijroga ega bo'ladi.

10.2. Nizom qoidalariga rioya etish klubning barcha a'zolari uchun majburiy hisoblanadi.

10.3. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Klub kengashi tomonidan taklif kiritiladi
- Muhokama qilinadi
- Universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi

10.4. Klub faoliyati quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- Universitet qarori asosida
- Klub a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori bilan
- Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda

10.5. Klub faoliyati tugatilgan taqdirda, uning hujjatlari va resurslari Universitetga topshiriladi.